

OGAHIY ASARLARIDAGI BA'ZI ATAMALAR TAHLILI

Ametniyazov Nurmuhammad,
Yangi asr universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqola tilshunoslikda turli tizimlarning tillardagi grammatik va leksik muammolar bilan bir qatorda soha atamashunosligi, xususan siyosiy sohaga (arab tili) oid atamalar masalalari, xorij tillaridan kirib kelayotgan so'zlarni o'z ona tilimizga aynan mos tushadigan so'zlarga almashtirish va tarjima qilish haqida keng va batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: morfologik usul, derivatsiya, so'z yasalishi, ma'no kengayishi, ma'no ko'chishi, ma'no torayishi, semantik usul, diglossiya.

Аннотация. В данной статье представлена обширная и подробная информация о грамматических и лексических проблемах языков различных систем в лингвистике, а также о терминологии, в частности, о терминах, относящихся к политической сфере (арабский язык), и о замене и переводе слов из иностранных языков на слова, точно соответствующие нашему родному языку.

Ключевые слова: морфологический метод, словообразование, расширение значения, перенос значения, сужение значения, семантический метод, диглоссия.

Abstract. This article provides extensive and detailed information on the grammatical and lexical problems of various systems in modern linguistics, as well as the terminology of the field, especially issues of terms related to the political sphere (Arabic language), substitution and translation of words, moving from foreign languages into words corresponding to our native language.

Keywords: morphological method, derivation, word formation, expansion of meaning, migration of meaning, narrowing of meaning, semantic method, diglossia.

Kirish. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazuvchi kuch, tabaqa yoki guruh paydo bo'lgan ekan, bu tarixiy ehtiyoj, zarurat samarasidir. Tarix kishilik jamiyatining har bir bosqichida hokimiyat idoralari xalq ruhiga ta'sir o'tkazuvchi vositalarni, xususan, adabiyot va san'atni qattiq nazorat ostida saqlab kelganligidan istalgancha guvohlik beradi. Insonning go'zallikka, orzu-havaslariga, axloqiy barkamollikka intilishlari ijodkor yashab turgan muhit ta'sirida turlicha shakl va mazmun kasb etishi bunday nazoratning asosiy sababidir. Jamiyatning eng taraqqiy topgan davrida ham, tanazzulga yuz tutgan tahlilali kezlarda ham nodir adabiy asarlar yaratilishi va xalq mulkiga aylanib, asrlar bo'yi unga xizmat qilishi ijodkorning salohiyati hamda davr so'zini aytish vazifasi, mas'uliyatini his etish darajasiga bog'liq bo'ladi. Muhammad Rizo Ogahiy o'z davrining ana shunday yuksak salohiyatli adibi va davr bahosini berish mas'uliyati zimmasiga tushgan ijodkori edi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda Ogahiy asarlarining til xususiyatlari, xususan, ijtimoiy-siyosiy va diniy atamalarning qo'llanishi bo'yicha mavjud ilmiy manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, tilshunoslikda semantik derivatsiya, ma'no kengayishi, torayishi va ko'chishi masalalariga oid nazariy qarashlar o'rganilib, ular Ogahiy matnlari misolida qiyosiy yoritildi. Ilgari olib borilgan tadqiqotlar asosida o'zlashma so'zlarning sinonimik va antonimik munosabatlari hamda ularning uslubiy xususiyatlari umumlashtirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy va semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, matndan olingan misollar asosida atamalarning ma'no o'zgarishlari va funksional xususiyatlari kontekstual yondashuv orqali o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. Ogahiyning tarixiy mavzudagi asarlari XIX asr Xiva xonligi va uning atrofidagi xalq hayotini ularning boshqarilish ahvolini tasvirlash orqali ko'rsatib beradi. Adib yaratgan asarlar u yashagan davr mafkurasini to'la aks ettirishi bilan ham xarakterlanadi. Sho'rolarning zo'ravonlikka asoslangan, ateizm andozalariga solingan mafkurasiga qarama-qarshi o'laroq O'zbekistonning hozirgi madaniy siyosati umuminsoniy qadriyatlarga, fikrlar xilma-xilligiga tayanadi. Bu siyosat o'zbek xalqining (bu yerda yashayotgan boshqa xalqlarning ham) o'tmishda yaratilgan barcha asarlarini o'rganish imkoniyatlarini yaratdi. Lekin bu har qanday adabiy manbani har kim o'z bilganicha tadqiq etaverishiga, parokandalikka yo'l beriladi, degani emas. Har qanday davlatning milliy o'sishi, xususan, iqtisod, sanoat, ichki va tashqi siyosat, umuman olganda, jamiyatning barcha jabha va sohalari rivojlanib borishi va umumjahon jarayonlarga qo'shilishi atamalarni ishlab chiqilishga va tilning lug'aviy fondini o'z vaqtida zamonaviy atamalar bilan to'ldirilishini talab qiladi. Ammo birgina morfologik usul (derivatsiya) orqali atamalarning hosil bo'lishi mazkur ehtiyojni to'liq qoplay olmaydi. Shuning uchun ham yangi atama birliklarning yasashida asl leksikani ikkilamchi nominatsiya usulini qo'llash tabiiydir. Ushbu usul bevosita o'zlashtirishlardan voz kechib, ona tili vositalaridan keng foydalanish imkonini beradi. Ikkilamchi nominatsiya, ya'ni semantik so'z yasashi yoki semantik derivatsiya denganda dastavval semantik o'zgarishlarning keng doirasi tushuniladi. Ushbu o'zgarishlar tilning asl birliklarida yangi semantik tarkibotlarning paydo bo'lishi: leksikaning mavjud ma'nosi butunlay yo'qolishi yoki mutlaqo yangi ma'noning hosil bo'lishi hamda asl ma'nolar bilan birga yana bir leksik-semantik variantning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Boshqacha qilib aytganda, semantik derivatsiya usuli bilan yasalgan atamalar umumiste'mol qo'llanilish sohasidan maxsus, tor leksikaning qatoriga o'tib qoladi, ya'ni tilda mavjud bo'lgan so'z birligiga yangi atamaga oid ma'no beriladi. Tilshunos olimlar G.Paul, R.A.Budagovlarning fikrlariga ko'ra, semantik o'zgarishlar uchta turga bo'linadi: 1) ma'noning kengayishi; 2) ma'noning torayishi; 3) ma'noning ko'chishi / siljishi. Boshqa turdagi atamalar singari siyosiy atamalarning semantik xususiyatlari aynan shu 3 ta usul – ma'noning kengayishi, torayishi va ko'chishi / siljishi bilan bog'liqdir.

Siyosat – bu qarorlar qabul qilish va oqilona natijalarga erishish uchun ataylab ishlab chiqilgan ko'rsatmalar tizimidir. Siyosat niyat bayonoti bo'lib, protsedura yoki protokol sifatida amalga oshiriladi. Siyosat, odatda, tashkilot ichidagi boshqaruv organi tomonidan qabul qilinadi. Siyosat *sub'ektiv* va *ob'ektiv* qaror qabul qilishda yordam berishi mumkin. Subyektiv qarorlar qabul qilishda qo'llanadigan siyosatlar, odatda, yuqori boshqaruvga bir qator omillarning nisbiy afzalliklariga asoslanishi kerak bo'lgan qarorlar qabul qilishda yordam beradi va natijada ob'ektiv ravishda sinab ko'rish qiyin, masalan, ish va hayot

muvozanati siyosati. Bundan tashqari, hukumatlar va boshqa institutlar qonunlar, qoidalar, tartiblar, ma'muriy harakatlar, rag'batlantirish va ixtiyoriy amaliyotlar ko'rinishidagi siyosatlariga ega. Ko'pincha resurslarni taqsimlashda siyosat qarorlari aks etadi.

Julus – hukmdorning taxtga o'tirishi; ushbu tantanali marosim nomi: hazrati zillullohiyning julusi ishoratiga mush'ir bir ta'rix topib, iltifoti podshohonadin kimxo libos va qimmatbaho dakalay in'omi bila akfo va ajnosim arosida mumtoz bo'lub, sarafrozlig' topib erdim.

Bay'at – “va'dalashish” ma'nosidagi ushbu so'z ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansub so'z sifatida “hukmdorga sadoqat haqida qasamyod qilish” mazumini anglatadi: ...*bay'ati* sadoqatandeshlarin sam' qilib...

Bog'iy – musulmon hoida musulmon podshohiga tobe bo'lmagan odam: sinoni xunfishon ishorati bila bog'iylardin ko'b kishini aftonu xezon jahannam uqubatgohig'a ravon va shitobon qildilar va benihoyat bosh kesib, ko'b ot va o'ljag'a mutasarraf bo'ldilar.

Ogahiyning tarixiy asarlari tilida o'z va o'zlashma qatlam so'zlariaro sinonimiyani ko'plab uchramiz. Masalan, asar lug'at fondida monarx tushunchasini ifodalovchi **xon, xoqon, qaysar, shoh, shahriyor, podshoh, xusrav, sulton, hokim, amir, voliy, kadxudo** kabi so'zlar mavjudligini ko'rdik. Mazkur so'zlar o'zaro ma'no tafovutiga ham ega. Chunki, sinonim ma'nosi aynan bir xil emas, “qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsional bo'yog'i, qo'llanish kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir.

O'zlashma so'zlar doirasidagi antonimlarga misollar: **hur, banda, faqir, miskin, sohibi nisob, arbobi mol.**

1. Hur. Ma'nosi: ozod, erkin inson (qullikdan xoli kishi). Ishlatilishi: “Hur va banda” iborasi odatda “ozod va qul” ma'nosida, ya'ni barcha insonlarni qamrab olish uchun ishlatiladi. Masalan: *Hur-u banda barobar Alloh oldida.* – “Ozod ham, qul ham Alloh oldida tengdir”.

2. Banda. Qul, xizmatkor, Allohning bandasi (yaratilgan). Ishlatilishi: Diniy matnlarda insonni Allohga nisbatan kamsuqumlilik bilan “banda” deb atash odat bo'lgan. Masalan: *Inson har doim banda, Alloh esa Robbdir.*

3. Faqir. kambag'al, muhtoj kishi; Alloh oldida faqir (ya'ni, Unga muhtoj) inson. Ishlatilishi: Tasavvufda “faqir” so'zi ruhiy kamtarlik ramzi sifatida ishlatilgan. Masalan: *Faqir Allohdan boylik emas, ma'naviy nurlar so'raydi.*

4. Miskin. Yanada nochorroq, o'zini boqishga ojiz kishi. “Faqir” – daromadi kam kishi; “miskin” – umuman imkoniyatsiz, nochor. Qur'onda ham “*miskin*” so'zi sadaqa va zakot oluvchilardan biri sifatida zikr etilgan.

5. Sohibi nisob. Moli “nisob” (ya’ni, zakot to‘lash uchun yetarli miqdor)ga yetgan boy kishi. Ishlatilishi: Diniy-huquqiy atama. “Nisob” – zakot farz bo‘lish chegarasi. Masalan: *Sohibi nisob bo‘lgan kishi zakot berishi farzdir.*

6. Arbobi mol. Mol-dunyo egalari, boylar, savdogarlar. Qadimiy matnlarda “arbobi mol” – moliyaviy jihatdan kuchli, lekin ko‘pincha kibrli kishilarni ham bildirgan so‘z va birikmalarni misol keltirishimiz mumkin.

Xulosa. Umuman, asardagi o‘zlashma so‘zlarni mavzu guruhlari bo‘yicha tadqiqi natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin bo‘ladi:

1. O‘zlashma so‘zlardagi bir tushunchaning turli xil ifodasi bo‘lgan so‘zlar o‘rtasidagi o‘zaro ma’no tafovutiga jiddiy e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

3. O‘zlashma so‘zlarga mansub ayrim so‘zlarning ko‘chma ma’nosi, omonimi ham bo‘lishi mumkinligini ushbu asar lug‘at tarkibi ham ko‘rsatib beradi.

Ogahiy o‘z badiiy-tarixiy asarlarida ona tili boyliklaridan ustalik bilan foydalandi. Muarrir ijodiy merosida o‘zbek adabiy tilining Xorazm lahjasi boyliklaridan unumli foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Munday, Jeremy. *Introducing Translation Studies: Theories and Applications.* Routledge, 2016.
2. Qurbonova N. Geosiyosiy atamalarni tarjima qilishdagi asosiy qiyinchiliklar.
3. Ermatov Ixtiyor. *O‘zbek tilshunoslik terminologiyasi.* 2021.
4. Ogahiy abadiyati. *Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti, Xorazm Ma’mun akademiyasi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – 152 b.
5. Ogahiy. *Ishq ahlining tumori. Tanlangan asarlar.* – Toshkent: Meros, 1999.
6. Ogahiy. *Oy ketdi, oltob keldi. Forsiydan M.Abdulhakim tarjimasi.* – Xiva: Xorazm Ma’mun akademiyasi nashriyoti, 2002. – 42 b.
7. Ogahiy. *Ta’viz ul-oshiqin / Nashrga tayyorlovchi Xurshid.* –Toshkent: O‘zadabiynashr, 1960. – 648 b.